

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KONVERSIYA SO'Z YASASH USULI SIFATIDA

Noila Eshquvvatova

O'zMU Jizzax filiali 2-bosqich talabasi

noilaeshquvvatova@gmail.com

Parmonova Nasiba

O'zMU Jizzax filiali o'qituvchisi, Ilmiy rahbar

**Annotatsiya:** Maqolada ikki til o'rtasidagi, ya'ni ingliz va o'zbek tillaridagi konversiya hodisasiga va so'z yasash usuli sifatida o'xshash va farqli tomonlariga e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, konversyaning turli ko'rinishlariga misollar keltiriladi.

**Annotation:** The article focuses on the phenomenon of conversion in two languages, English and Uzbek, and the similarities and differences as a way of word formation. In addition, examples of various forms of conversion are given.

**Kalit so'zlar:** so'z yasash usullari, konversiya, so'z turkumlari, semantik-grammatik, subyektivatsiya, adyektivatsiya, adverbializatsiya, verbikatsiya.

**Key words:** the ways of word formation, conversion, parts of speech, semantic-grammatical, subjectivation, adjectivalisation, adverbialisation, verbifikation.

O'zbek va ingliz tillarida turli so'z yasash usullari mavjud. Shulardan biri bu konversiya hodisasidir, ya'ni bunda bir turkumdag'i so'z boshqa bir turkumga ko'chadi va o'z ma'nosini o'zgartiradi. So'z yasalishi, umuman, qanday usul, qanday vosita bilan bo'lmasin yangi leksik ma'noli so'z hosil qilishdir.

Konversiya ingliz tilida so'z yasashning eng samarali turlaridan biridir. Bu jarayon "zero derivation" (nol hosila) yoki "functional shift" (funktsional siljish) ham deyiladi. Lekin o'zbek tilida so'z yasashning bu turi unumli emas. Ingliz va o'zbek tillarining tipologik va genetik komponentlari tufayli grammatik tizimlar sezilarli darajada farqlanadi. Agar ingliz tili hind-evropa tili sifatida tasniflangan bo'lsa, o'zbek tili turkiy tillar qatoriga kiradi. Bu ularning grammatik tizimlari butunlay boshqachaligini ko'rsatadi. Grammatik tuzilishi jihatidan ingliz tili flektiv tildir. o'zbek tiliga kelsak, u aglyutinativdir. Demak, har qanday til grammatik tizimi uning faoliyatida katta rol o'ynaydi.[5]

XIX asrning so'nggi yillari ingliz grammatikasida konversyaning rivojlanishidagi muhim bosqich hisoblandi. Bu rivojlanishga ingliz tilshunosi Svit H.A katta hissa qo'shgan. U ilk bor konversiya atamasini ingliz grammatikasiga olib kirgan deya e'tirof etiladi. Boshqa tomondan u so'zlarning sintaktik ko'p funksionallik gýyasini ham rad qilmaydi.[3]

Konversiya atamasi ilmiy bilimlarning turli sohalarida qo'llaniladi. Ammo tilshunoslikda konversiya atamasi so'z yasalishining turlaridan biri sifatida talqin etiladi. Hatto buyuk ingliz yozuvchisi Shekspir ijodida ham ushbu so'z yasash usuliga guvoh bo'lishimiz mumkin. Hattoki, inson ismi ham fe'lga aylanganini ko'rish mumkin. Misol: "**Petruchio is Kated**".

Konversiya (lot.conversio-aylanish) so'z yasashning semantik-grammatik usulining alohida ko'rinishini tashkil qiladi. Bunda bir turkumdag'i so'z ikkinchi bir turkumga o'tadi. Uning leksik va grammatik ma'nosi o'zgaradi.[2]

Konversianing asosiy ko'rinishlari: substantivatsiya, adyektivatsiya, verbikatsiya va adverbializatsiya. Bunda boshqa so'z turkumlaridagi so'z ot, sifat, fe'l va ravishga o'tadi. Masalan, "o'qish", "qurilish" kabi so'zlar ot deya tahlil qilinsada aslida fe'llarning harakat nomi shakli hisoblanadi.

Konversiya hodisasi qo'shimchasiz tillar, ya'ni barcha so'z turkumlari aks etgan so'z shakllariga ega bo'lмаган tillarda keng rivojlangan. Yuqorida ta'kidlanganidek, bir turkumdag'i so'z boshqa bir turkumga qo'shimchalarsiz o'tadi. Masalan, o'zbek tilida qaraydigan bo'lsak "go'zal" so'zi sifat va ot bo'lishi mumkin. Ot turkumida kelganda ism vazifasini bajaradi.

Shuningdek, bir turkumdag'i so'z o'z ma'nosini o'zgartirishi, boshqa ma'no ifodalashi mumkin. Masalan, "yozdi" fe'li (xat yozdi); (barg yozdi); (dasturxon yozdi) yoki "yetdi" fe'li (manzilga yetdi); (maqsadga yetdi); (orzuyiga yetdi). So'z yasalishidagi bu usul lug'aviy-semanticusul deb ataladi.

Bundan tashqari, so'z yasash usuli, ya'ni konversiyaga misol qilib, "Mard maydonda bilinar" gapini tahlil qilsak, ushbu gapda mard so'zi ot so'z turkumi vazifasida keltirilgan. Ammo "mard" so'zi morfologik jihatdan aniqliki, sifat so'z turkumi hisoblanadi. Otga ko'chgan o'rnida "odam" ma'nosini anglatib kelmoqda. Bu holatlarni sifatdoshlarda ham kuzatilishi mumkin. Misol uchun: o'qigan o'zar. Bu gapda ham "o'qigan" so'zi ot vazifasida keltirilgan. Biroq bu so'z sifatdoshga mansub so'z.

Ingliz tilida esa fe'ldan ot yasash yoki otdan fe'l yasash mumkin. Misol uchun: **A book** (n)-kitob, **book(v)**-buyurtma qilmoq; **Face** (n)-yuz, **to face** (v)-duch kelmoq.

Ushbu misollar orqali so'z o'zagida hech qanday o'zgarish kuzatilmasdan, boshqa kategoriyaga ko'chayotganligini kuzatish mumkin. Bu turdag'i so'zlar bir vaqtning o'zida ham ot ham fe'l so'z turkumida ishlatilishi mumkin.

Bundan tashqari sifatdan ham fe'l yasalishi mumkin. Masalan, **dry-quruq** (sifat), **to dry-quritmoq**, **qurimoq** (fe'l); **slow-sekin** (sifat), **to slow-sekinlashtirmoq** (fe'l); **open-ochiq** (sifat), **to open-ochmoq** (fe'l).

Qadimgi ingliz tili grammatikasida konversiya usulida so'z yasash bor bo'lgan deya e'tirof etilsada, hozirgi ingliz tilidagi konversiyadan omonimlarning yo'qligi, infinitiv fe'llarning so'z yasovchi suffikslarning yo'qligi bilan ham farq qiladi. A.I.Smirnitskiy omonim so'zlarda konversiya usuli bilan so'z yasalish belgilarini ko'rmadi. U so'z yasalishi qadimgi va hozirgi ingliz tilida bir xil prinsip bo'lganini tasdiqlaydi[4]. Misol uchun qadimgi ingliz tilida "slepen" fe'l va "slep" ot bo'lgan, vaqt o'tib fe'ldagi affiks yo'qolib ular bir xil shaklga kelib omonim bo'lib qolgan hamda "pencil"(n) va "pencil"(v) kabi konversiya orqali hosil qilingan so'zlardan farqlangan.

Konversiya hodisasida ham boshqa so'z yasash usullaridek, faqat bir ma'noli so'z yasaladi, biroq keyinchalik ularning ko'pchiligi ko'p ma'noli bo'lib ketadi. Konversiya usuli yordamida hosil bo'lgan yangi so'zlar konversianing ko'p marta takrorlanishiga bog'liq. Ya'ni o'zak so'z qancha ma'noga ega bo'lsa, konversiyaga shuncha ko'p to'g'ri keladi. Ushbu fikrga xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, konversiya usuli bilan faqat yangi so'zlarni hosil qilish bilan chegaralanib qolmasdan, yangi-yangi ma'noli so'zlar ham hosil qilish mumkinligini aytish joiz. [1]

Xulosa qilib aytganda, konversiya hodisasi har ikki tilda ham so'z yasash usullaridan biri hisoblanadi va so'z bir turkumdan boshqa so'z turkumiga o'zgarishsiz ko'chadi. Ingliz tilida bu

unumli so‘z yasash usuli hisoblansa, o‘zbek tilida u unumli emas. Konversyaning har ikki tilda ham keng tarqalgan ko‘rinishlari otlashish, sifatlashish, fe’llashish hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Hamroyeva L.Z., “Ingliz tilida fe’llarning konversiya usulida yasalishi”, Ученый XXI века, 2022, 3(84)
2. I.Yo’ldoshev,O’.Sharipova “Tilshunoslik asoslari” Toshkent “Iqtisod-Moliya” 2007.
3. Sweet.H.A. New English grammar Logical and historical. Part I Introduction, phonology and accidence, Part II Syntax. Oxford:At the Clarendon Press, 1900-1930.
4. Смирницкий А.И., По поводу конверсии в английском языке, “Иностранные языки в школе”, 1954-71c
5. Teshaboyeva Nafisa Zubaydulla kizi, & Niyatova Maftuna Norbek kizi. (2021). THE IMPORTANCE OF A WORD AND WORD FORMATION IN A LANGUAGE SYSTEM .*JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 7(12), 337-341. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/7B96V>